

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:
№ 5D 5321500-3.15
2019 yil "29" 08



Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti rektori

2019 yil "30" 08

USKUNALARNI EKSPLUATATSIYA QILISH VA TA'MIRLASH

FAN DASTURI

Bilim sohasi : 300000 – Ishlab chiqarish - texnik soha
Ta'lim sohasi : 320000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari
Ta'lim yo'nalishi : 5321500 – Texnologiyalar va jihozlar (engil sanoat jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish)

Buxoro–2019

Fan dasturi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Xakimov SH.SH. – TTYESI, “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrası texnika fanlari doktori, proffesor.

Sayfullayev S.S. – BuxMTI, “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

Bobojonov S.X. – TTYESI, “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrası dotsenti

Gapparov H.G. – BuxMTI, “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrası dotsenti

Fan dasturi “To’qimachilik va charm sanoat” fakultetining “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrası majlisida (201__yil “__” _____ -son bayonnoma) muxokama etildi va institut uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri: dots. F.A.Qurbonov

Kotiba: M.H.Gapparova

Tanlov fani dasturi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti uslubiy kengashida ko’rib chiqildi (201__ yil “__” _____ dagi “__”– sonli majlis bayonnoma) va institut kengashiga tavsiya etildi.

Uslubiy kengash raisi: dots.SH.M.Xodjiev

Uslubiy kengash kotibi: U.H.Xo’jaqulova

Tanlov fan dasturi institut kengashida muhokama qilindi va tasdiqlandi (201__ yil “__” _____ dagi “__”– sonli majlis bayonnoma).

Institut kengashi kotibi:_____dots.I.I.Mehmonov

I. O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA KASBIY TA'MINLANGANLIK O'RNI.

Ushbu fan dasturida “Uskunalarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash” fanining mazmuni, predmeti va metodi, tarmoq korxonasida ishlatiladigan texnologik mashinalar va jihozlarning tasnifi, yengil, to'qimachilik sanoati korxonalarining texnologik jarayonlari va ularni ishlash asoslari, yengil sanoat xom-ashyolari va ularni ishlab chiqarish jarayonlari uskunalari, paxtani dastlabki ishlash texnologik mashinalari va jihozlarini ta'mirlash hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, natijalari va hududiy muammolarning sohalarida ishlatiladigan texnologik mashinalarning va jihozlarning istiqboliga tasiri masalalari o'z aksini topgan. “Uskunalarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash” fani – O'zbekiston Respublikasining qarorlariga asosan yengil sanoat mahsulotlarini ishlabchiqarishni ko'paytirish, ularning sifatini oshirish va kichik korxonalarining samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan. Bu masalani hal etilishi mashina va texnologik jarayonlarning takomillashtirishga va sanoatni kompleks mexanizatsiyalashtirish hamda avtomatlashtirishga bog'liq. SHuning uchun ham yengil sanoat korxonalarining butun dunyo fan va texnikasining yutuqlarini tashkil qiluvchi yangi mukammallashtirilgan texnikalar bilan ta'minlash, texnikaviy qayta jihozlashishlarini rivojlantirish, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini to'liq mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

II. Fanning maqsad va vazifalari

“Uskunalarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash” fanini o'qitilishidan maqsad paxta sanoati uskunalarni ishlab chiqarish jarayonlari davrida ulardan uzluksiz va sifatli foydalanish, ishdan chiqqan hollarda tez va unumli qayta tiklash yo'llarini o'rganishdir.

Fanning vazifasi-talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish natijasida ishlab-chiqarishda, ya'ni kelajakdagi amaliy ishlarida bajara oladigan ko'nikmalarga ega bo'lishdir

III. ASOSIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-modul. Fanga kirish

“Uskunalarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash” fanining maqsadi va vazifasi.

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uning yengil sanoat korxonalarini uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlab berishdagi ahamiyati. Respublikamizda xalqning turmush tarzini yaxshilash uchun yengil sanoat korxonalarini jihozlarining ahamiyati va

fanning vazifalari. Texnik xizmat ko'rsatish faoliyati inson ehtiyojini qondiruvchi shakl sifatida. Texnik xizmat ko'rsatish faoliyatining rivojlanishi va ijtimoiy tamoyillari.

Mashinalarning ishonchliligi to'g'risida tushunchalar.

Mashinalarning ishonchlilik ko'rsatkichlari. Mashinaning umrboqiyli va ishga qobiliyatligi. Mashinaning ta'mirlashga yaroqliligi Asosiy tushunchalar. Jihozlarni ishlatish jarayonida texnik holatini baholash.

2-Modul. Yengil sanoat maashina detallarining ishqalanish va yeyilishi.

Mashina detallarini ishqalanishi va yeyilishi.

Mashina detallarining yeyilishi va nuqsonlari. Eyilishga ta'sir etuvchi omillar. Mashina detallaridagi ishqalanishni va yeyilish jarayonlari. Mashina detallaridagi ishqalanishni va yeyilishni aniqlovchi uskunalar.

3-modul. Mashina uskunalarini tiklash texnologik jarayonlari

Detallarni tiklashni samarali usullari. Detallarni galvanik va kimyoviy qoplamalar bilan tiklash. Detallarni tiklash usulini tanlash bosqichlari.

Mashinalar va uskunalarni ta'mirlashda ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar

Mashinalarni ta'mirlashni tashkil etish va ta'mirlash texnologiyasi. Mashinani tashkil etuvchi qismlar. Konstruktiv qismlar. Nokonstruktiv qismlar.

Yengil sanoat korxonalarini uskunalarini moylash

Moylash qurilmalari. Markazlashgan moylash usuli. Individual moylash usuli

Moylash materiallari va ularni tanlash.

Sanoatda ishlatiladigan moylar. Moyning qovushqoqlik ko'rsatkichi. Qovushqoqlik turlari. Moy tanlash mezonlari.

5-modul. Paxta tozalash korxonalaridagi mashina va jihozlar

Paxtani tozalash korxonalarini uskunalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va sozlash

Arra ta'mirlash ustaxonasidagi uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va ishlatish. Quritish, tozalash sexlaridagi uskunalardagi nosozliklarni bartaraf etish va ishlatish. Tola ajratish mashinalarini ishlatish va ta'mirlash usullari.

6-modul. Tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalarini ishlatish

Gazlamalarning enini, uzunligini o'lchash va nuqsonlarini aniqlash mashinasini ekspluatatsiya qilish. Andazalar yuzasini o'lchash mashinasini sozlash. To'shash mashinalari ta'mirlash. Bichish ishlarida ishlatilgan uskunalarni ta'mirlash.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarida talabalar engil, paxta sanoati mashinalarining mexanizmlari va ishchi sektsiyalari ustida amaliy ishlarni olib boradilar.

Amaliy mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari

- Paxtani quritish uskunalarini ekspluatatsiya qilish,
- Paxtani tozalash uskunalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.
- Paxtani jinlash uskunalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.
- Tolani tozalash uskunalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish
- Chigitni linterlash uskunalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish
- Tolani presslash uskunalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish
- Yigirish va to'quv mashinalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va sozlash.
- Tikuv mashinalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.
- Siniq va zanjirsimon baxiyali tikuv mashinalarini ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.
- Tikuv mashinalarining sifati va puxtaligi

- Mashinalardagi shovqin, titrash va ularni kamaytirish yo'llari

V. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlar namunaviy o'quv rejada rejalashtirilmagan

VI. Kurs loyahasini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fan bo'yicha kurs loyihasi namunaviy o'quv rejada rejalashtirilmagan.

VII. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, talaba ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari. Masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

- Mashina va apparatlarning unumdorligini hisoblash;
- Mashina detallarini konstruktiviyalash haqida ma'lumotlar;
- Mashinalarni loyihalashda material tanlash va ulardan foydalanish;
- Mashinalarni loyihalashda texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablari;
- TSiklogrammalar qurish;
- Mashina mexanizmlarning strukturaviy va kinematik tahlili;
- Mashina detallarini hisoblash bo'yicha ko'rsatmalar;
- Mashinalarga ta'sir qiluvchi kuchlar. Mashinaning harakat tenglamasi;
- Mashinalarga ta'sir qiluvchi inerstiya kuchlarini aniqlash;
- Mexanizmlarning kuchlar tahlili;
- Tikuv mashinalari uchun igna mexanizmlarini loyihalash;
- Mashina detallarini mustahkamlikka hisoblash;
- Tikuv mashinalari ignalarini mustahkamlikka hisoblash;
- Mashina detallarini xususiy va tutashuv qattiqligiga hisoblash;
- Mashinalardagi shovqin, titrash va ularni kamaytirish yo'llari;
- Mashinaning foydali ish koeffitsienti;

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Pedagogik va axborot texnologiyalari, jumladan virtual stendlar, plakatlar, prezentastiyalar, elektron uslubiy ko'rsatmalar, diaproektor, kodoskop, slaydlar, kompyuter tarmog'i, ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalaniladi..

VIII. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Smith R., Mobley R. Industrial machinery repair: best maintenance practices pocket guide.
2. Illustrated Catalogue of Cotton Machinery.
3. Ye.Z. Zikriyoev. "Paxtani dastlabki ishlash". O'quv qo'llanma. T., "Mehnat", 2002 y.
4. O'zpxtasanoat Aktsiyadorlik uyushmasi. "Paxta tozalash ICHB" OAJ "Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik". F.B.Omonov umumiy tahriri ostida. T., 2008 y.
5. Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi. (PDI 01.2007). T., 2007y.
6. SH.U. Yo'ldoshev. «Mashinalar ishonchliligi va ularni ta'mirlash asoslari». T., «O'zbekiston», 1994.
7. Olimov Q.T., Bafoev D.X. va b. «Tikuv va trikotaj jihozlarini o'rnatish, yig'ish va ta'mirlash asoslari» T., «O'qituvchi», 2004.
8. Olimov Q.T., Bafoev D.X. va b. «Engil sanoat jihozlarini ta'mirlash va tiklash asoslari» T., «Akademiya», 2005.
9. Bafoev D.X., Avezov M.F. "CHarm-galantereya sanoati jihozlarini ishlatish va ta'mirlash". T., "Durdona", 20014.
10. M.I. Худых «Remont i montaj oborudovanie tekstil'noy i legkooy promyshlennosti», M, 1987.
11. Ya.K.Yashenkov «Texnologiya remonta oborudovanie shveyunых predpriyatiy», M, 1980.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 48 b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
5. Bafoev D.X. “Tarmoq mashinalarini ta’irlash” fanidan ma’ruzalar to’plami” Buxoro, 2012.
6. A. L. Ioffe. «Ekonomika i organizatsiya remonta oborudovaniya v legkoy promyshlennosti». M. «Legkaya industriya», 1977
7. V.Ya. Frants. «Ekspluatatsiya i remont shveynogo oborudovaniya». M.:«Legkaya industriya», 1978 g.
8. Xudix M.I. Remont tekstil’nykh mashin. Izd. 3-e. M.: «Legkaya industriya», 1991 g.
9. Xamov M.G. Remont, montaj i naladka xlopkoochistitelnogo oborudovaniya. T.: “O’qituvchi”. 1990.
10. P.A. Bolshakov. «Spravochnik po remontu, naladke i ekspluatatsii oborudovaniya obuvnykh predpriyatii». M., 1982
11. Bafoev D.X. “Tarmoq mashinalarini ta’irlash” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy qo’llanma. Buxoro 2012.
12. Belenkiy S.I. Spravochnik po remontu oborudovaniya tekstilnoy i legkoy promyshlennosti. M.:«Legkaya industriya», 1998 g.

Elektron resurslar

1. <http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/30506>
2. www.legprominfo.ru
3. www.textil-press
4. www.textileclub
5. <http://www.uzbekistan.uz>
6. <http://www.bilim.uz>